

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma’lumot
2023-yil yanvar-mart*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-aprel holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **14 800** tani tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **2 373** taga oshgan (o'sish sur'ati **119,1** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **42** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **14 758** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **5 583,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **102,3** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **988,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **82,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 595,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,9** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **596,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,7** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


| | Jami mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2022-yil yanvar – mart oylariga nisbatan, % |
|--------------------|-----------------|---|-----------------------------|---|---|---|
| Samarqand viloyati | 5 583,3 | 102,3 | 988,3 | 82,4 | 4 595,0 | 107,9 |
| Samarqand sh. | 2 080,5 | 100,2 | 838,279 | 77,8 | 1 242,2 | 124,3 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 359,4 | 101,5 | 0,389 | 96,9 | 359,1 | 101,5 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqdaryo | 146,8 | 101,4 | 1,535 | 93,0 | 145,2 | 101,5 |
| Bulung'ur | 251,5 | 102,7 | 8,609 | 132,8 | 242,9 | 101,8 |
| Jomboy | 219,0 | 105,0 | 12,449 | 6,9 m. | 206,6 | 99,9 |
| Ishtixon | 188,3 | 101,7 | 1,730 | 109,4 | 186,6 | 101,7 |
| Kattaqo'rg'on | 260,4 | 105,2 | 2,248 | 94,3 | 258,1 | 105,3 |
| Qo'shrabot | 77,5 | 102,3 | 1,305 | 89,6 | 76,2 | 102,6 |
| Narpay | 211,1 | 102,2 | 1,981 | 85,7 | 209,1 | 102,4 |
| Payariq | 206,2 | 104,1 | 1,973 | 88,2 | 204,2 | 104,3 |
| Pastdarg'om | 246,6 | 102,5 | 14,463 | 161,6 | 232,1 | 100,2 |
| Paxtachi | 140,3 | 104,0 | 1,876 | 95,1 | 138,4 | 104,1 |
| Samarqand | 359,0 | 105,5 | 86,022 | 109,5 | 273,0 | 104,3 |
| Nurobod | 94,4 | 102,4 | 1,316 | 96,8 | 93,1 | 102,4 |
| Urgut | 583,9 | 104,5 | 10,292 | 118,4 | 573,6 | 104,3 |
| Toyloq | 158,4 | 105,3 | 3,799 | 2,2 m. | 154,6 | 104,0 |

2023-yilning yanvar-mart oylarida 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Samarqand tumanida (**105,5 %**), Toyloq (**105,3 %**), Kattaqo'rg'on (**105,2 %**), Jomboy (**105,0 %**) va Upgut (**104,5 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
yanvar-mart, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2020-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning mos davriga nisbatan **110,8 %** ni yoki **3 268,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foiz

2022-yil, 2023-yil yanvar-mart oylari



2023-yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, foiz



- | | | |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo |
| ■ Bulung'ur | ■ Jomboy | ■ Ishtixon |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot | ■ Narpay |
| ■ Payariq | ■ Paxtachi | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om | ■ Nurobod | ■ Urgut |
| ■ Toyloq | | |

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **37,3 %** bilan **2 080,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qo'shrabot tumani **1,4 %** bilan **77,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Samarqand (**105,5 %**), Toyloq (**105,3 %**), Kattaqo'rg'on (**105,2 %**) va Jomboy (**105,0 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 595,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **7,9** % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,3** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **82,4** % ni va **988,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,7** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foiz



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**99,1 %**), Kattaqo'rg'on (**99,1 %**), Narpay (**99,1 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **17,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**40,3 %**), Samarqand (**24,0 %**), Jomboy (**5,7 %**), Pastdarg'om (**5,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, foiz |
|---------------------------|----------------------|-------------------------|
| Samarqand viloyati | 1 352,5 | 100,1 |
| Samarqand sh. | 3 622,7 | 98,2 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 3 836,3 | 99,8 |
| tumanlar: | | |
| Oqdaryo | 865,3 | 99,0 |
| Bulung'ur | 1 270,0 | 100,5 |
| Jomboy | 1 181,4 | 102,5 |
| Ishtixon | 695,6 | 99,6 |
| Kattaqo'rg'on | 902,5 | 103,1 |
| Qo'shrabot | 555,9 | 100,3 |
| Narpay | 943,1 | 100,3 |
| Payariq | 770,5 | 101,5 |
| Pastdarg'om | 656,2 | 100,4 |
| Paxtachi | 934,1 | 102,5 |
| Samarqand | 1 339,9 | 103,2 |
| Nurobod | 591,5 | 100,4 |
| Urgut | 1 067,3 | 102,0 |
| Toyloq | 732,2 | 102,8 |

2023-yilning yanvar-mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 352,5** ming. so'mni (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **100,1** % ni) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**3 622,7** ming. so'm), Kattaqo'rg'on (**3 836,3** ming. so'm) va Samarqand (**1 339,9** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **596,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **112,7 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **261,3** mlrd. so'mni (**2,1 m.**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **334,8** mlrd. so'mni (**83,3 %**) tashkil etdi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.











UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

| | Jami, mlrd. so'm | 2022-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, % | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2022-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, % | Chorva bozorlari, mlrd. so'm | 2022-yil yanvar- mart oylariga nisbatan, % |
|---------------------------|------------------------|---|---------------------------------------|---|---------------------------------------|---|
| Samarqand viloyati | 596,1 | 112,7 | 261,3 | 2,1 m. | 334,8 | 83,3 |
| Samarqand sh. | 55,5 | 173,4 | 51,5 | 184,0 | 4,0 | 99,7 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 99,9 | 87,7 | 53,4 | 8,0 m. | 46,4 | 43,3 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqdaryo | 35,2 | 102,3 | 2,4 | 56,5 | 32,8 | 108,7 |
| Bulung'ur | 50,4 | 115,0 | 13,0 | 117,4 | 37,4 | 114,2 |
| Jomboy | 59,2 | 164,9 | 38,6 | 2,7 m. | 20,6 | 95,0 |
| Ishtixon | 40,7 | 133,3 | 14,9 | 5,2 m. | 25,8 | 80,3 |
| Kattaqo'rg'on | 41,7 | 101,1 | 12,4 | 117,4 | 29,4 | 95,5 |
| Qo'shrabot | 22,3 | 92,4 | 9,0 | 2,9 m. | 13,3 | 63,3 |
| Narpay | 6,6 | 101,0 | 4,6 | 81,6 | 2,0 | 2,2 m. |
| Payariq | 47,9 | 113,6 | 15,7 | 2,3 m. | 32,2 | 91,3 |
| Pastdarg'om | 22,8 | 101,8 | 1,4 | 30,6 | 21,4 | 159,9 |
| Paxtachi | 24,4 | 117,8 | 8,8 | 169,3 | 15,5 | 100,4 |
| Samarqand | 10,8 | 106,2 | 1,6 | 168,0 | 9,2 | 99,7 |
| Nurobod | 22,0 | 92,3 | 11,2 | 125,2 | 10,8 | 72,7 |
| Urgut | 28,1 | 111,9 | 14,5 | 173,6 | 13,6 | 81,2 |
| Toyloq | 28,6 | 128,6 | 8,3 | 142,9 | 20,3 | 123,5 |

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **261,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**121,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

| Qishloq xo'jaligi mahsulotlari | | Mrld. so'm |
|---|---|--------------|
|  | Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari | 121,3 |
|  | Non va non mahsulotlari | 30,2 |
|  | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) | 26,5 |
|  | Tovuq go'shti | 21,6 |
|  | Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) | 20,4 |
|  | Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) | 7,1 |
|  | Tuxum | 9,6 |
|  | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak | 7,1 |
|  | Ziravorlar | 8,2 |
|  | Tuzlamalar | 8,4 |
|  | Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi) | 0,9 |
| | Nooziq-ovqat tovarlari | 0,0 |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **334,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **275,3** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **39,5** mlrd. so‘mni, otlar **18,4** mlrd. so‘mni, parrandalar **1,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

| Chorva mollari (parrandalar) | | Mrld. so‘m |
|---|---|------------|
|  | 2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar | 154,4 |
|  | 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 75,8 |
|  | 1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 45,1 |
|  | Qo‘ylar | 31,6 |
|  | Otlar | 18,4 |
|  | Echkilar | 7,9 |
|  | Kurka, o‘rdak, g‘oz | 0,5 |
|  | Tovuqlar | 1,1 |
|  | Quyونlar | 0,0 |
|  | Qushlar | 0,0 |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 138** tani tashkil etib, 2022-yil 1-aprel holatiga nisbatan **555** taga oshgan va o'sish sur'ati **115,5 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **8** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 130** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **187,0** mlrd. so'mni (**101,4 %** ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **68,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % | Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % |
|---------------------------|-----------------|---|-----------------------------|---|--|---|
| Samarqand viloyati | 187,0 | 101,4 | 58,9 | 110,9 | 128,1 | 97,6 |
| Samarqand sh. | 94,4 | 94,1 | 17,7 | 89,0 | 76,7 | 95,3 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 4,4 | 99,7 | - | - | 4,4 | 99,7 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqdaryo | 1,0 | 112,6 | - | - | 1,0 | 112,6 |
| Bulung'ur | 4,8 | 116,2 | 2,6 | 130,2 | 2,2 | 103,1 |
| Jomboy | 3,7 | 97,7 | - | - | 3,7 | 97,7 |
| Ishtixon | 1,5 | 102,8 | - | - | 1,5 | 102,8 |
| Kattaqo'rg'on | 3,3 | 113,5 | - | - | 3,3 | 113,5 |
| Qo'shrabot | 1,6 | 107,6 | - | - | 1,6 | 107,6 |
| Narpay | 1,9 | 103,4 | - | - | 1,9 | 103,4 |
| Payariq | 2,2 | 103,2 | - | - | 2,2 | 103,2 |
| Pastdarg'om | 12,5 | 106,2 | 4,8 | 140,3 | 7,7 | 92,1 |
| Paxtachi | 1,4 | 98,4 | - | - | 1,4 | 98,4 |
| Samarqand | 6,5 | 96,8 | - | - | 6,5 | 99,9 |
| Nurobod | 1,4 | 107,8 | - | - | 1,4 | 107,8 |
| Urgut | 6,6 | 112,9 | - | - | 6,6 | 112,9 |
| Toyloq | 39,8 | 117,2 | 33,8 | 122,5 | 6,0 | 94,3 |

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-mart oylariga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari - motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **406,4** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **97,7 %** ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **73,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **80,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **333,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,7 %** ni) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajm, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, foiz |
|---------------------------|---------------------|-------------------------|
| Samarqand viloyati | 406,4 | 97,7 |
| Samarqand sh. | 265,939 | 94,0 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 1,209 | 104,1 |
| tumanlar: | | |
| Oqdaryo | 1,261 | 105,8 |
| Bulung'ur | 1,264 | 101,1 |
| Jomboy | 0,618 | 105,8 |
| Ishtixon | 0,820 | 103,1 |
| Kattaqo'rg'on | 0,519 | 105,8 |
| Qo'shrabot | 0,089 | 101,7 |
| Narpay | 1,026 | 102,6 |
| Payariq | 0,129 | 105,8 |
| Pastdarg'om | 0,067 | 105,8 |
| Paxtachi | 0,634 | 101,3 |
| Samarqand | 20,503 | 105,8 |
| Nurobod | 0,414 | 105,8 |
| Urgut | 0,013 | 105,8 |
| Toyloq | 111,862 | 105,9 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**265,9** mlrd. so'm), Toyloq (**111,9** mlrd. so'm) va Samarqand (**20,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 458,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **19,7 %** ga o‘sd.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 265,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **79,4 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **51,5 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (**3,1 b.**), Kattaqo'rg'on shahrida (**4,4 b.**) va Qo'shrabot (**2,9 b.**), Samarqand (**133,3 %**), Jomboy (**71,0 b.**), Pastdarg'om (**2,1 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 064** tani tashkil etib, 2022-yil 1-aprel holatiga nisbatan **536** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **121,2 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **27** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 037** tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % | Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm | 2022-yil yanvar – mart oylariga nisbatan, % |
|---------------------------|-----------------|---|-----------------------------|---|--|---|
| Samarqand viloyati | 2 458,5 | 119,7 | 1 193,2 | 2,6 m. | 1 265,4 | 79,4 |
| Samarqand sh. | 1 799,5 | 133,3 | 965,9 | 3,1 m. | 833,7 | 80,3 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 49,2 | 95,1 | 0,7 | 4,1 m. | 48,6 | 94,1 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqdaryo | 17,5 | 86,6 | - | - | 17,5 | 86,6 |
| Bulung'ur | 84,3 | 118,2 | 72,8 | 128,5 | 11,5 | 78,5 |
| Jomboy | 30,5 | 69,3 | 6,8 | 71,0 m. | 23,7 | 54,0 |
| Ishtixon | 13,2 | 84,0 | - | - | 13,2 | 84,0 |
| Kattaqo'rg'on | 23,4 | 83,4 | - | - | 23,4 | 84,4 |
| Qo'shrabot | 3,5 | 95,2 | 0,05 | 92,4 | 3,4 | 95,2 |
| Narpay | 8,3 | 90,8 | 0,1 | 76,9 | 8,2 | 91,0 |
| Payariq | 9,7 | 85,5 | - | - | 9,7 | 85,5 |
| Pastdarg'om | 119,1 | 119,3 | 68,4 | 2,1 m. | 50,7 | 75,2 |
| Paxtachi | 4,2 | 85,6 | 0,1 | 18,9 | 4,1 | 96,5 |
| Samarqand | 146,2 | 87,1 | 50,1 | 133,3 | 96,1 | 73,8 |
| Nurobod | 10,9 | 75,4 | 0,04 | 46,2 | 10,8 | 75,6 |
| Urgut | 79,9 | 90,7 | - | - | 79,9 | 90,7 |
| Toyloq | 59,1 | 79,4 | 28,2 | 127,9 | 30,9 | 59,0 |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80**